# PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURI MEZONLARI ORQALI ONA TILI DARSLARINI TASHKIL QILISH

**Maxmudova Sabina Amriddin qizi**
GulDPI Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada PIRLS xalqaro baholash dasturining mazmuni, asosiy maqsadlari va ta’lim tizimidagi o‘rni yoritilgan. Maqolada o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash orqali ta’lim sifatini aniqlash va uni takomillashtirishga qaratilgan imkoniyatlar tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonning ushbu dasturda ishtiroki va Prezidentning ta’limga oid fikrlari asosida mavzuning dolzarbligi ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** PIRLS xalqaro baholash dasturi, tushunish darajasi, tushunish ko‘nikmasi, o‘qituvchi, o‘quvchi, o‘qish strategiyalari, PIRLS formatidagi topshiriqlar.

**Аннотация.** В данной статье раскрывается содержание, цели и значение международной программы оценки PIRLS в системе образования. Рассматриваются возможности повышения качества образования через оценку грамотности чтения школьников. Особое внимание уделено участию Узбекистана в данной программе, а также актуальности темы на основе взглядов Президента на образование.

**Ключевые слова:** международная программа оценки PIRLS, уровень понимания, навыки понимания, учитель, ученик, стратегии чтения, задания в формате PIRLS.

**Abstract.** This article highlights the content, main objectives, and significance of the PIRLS international assessment program within the education system. It analyzes how reading literacy assessment helps improve education quality. The paper also discusses Uzbekistan’s participation in PIRLS and emphasizes the relevance of the topic through the President's views on education.

**Keywords:** PIRLS international assessment program, comprehension level, comprehension skills, teacher, student, reading strategies, PIRLS-format tasks.

Bugungi kunda ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir davrda har bir davlatning taraqqiyoti, avvalo, uning ta’lim tizimi sifatiga bog‘liq. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratib, quyidagicha ta’kidlaydi: “Yangi O‘zbekistonni barpo etish – avvalo, bilimli va intellektual salohiyatga ega yosh avlodni tarbiyalash orqali amalga oshiriladi.” Ushbu fikr ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini xalqaro mezonlar asosida baholash zaruratini yanada kuchaytiradi.Aynan shunday xalqaro baholash tizimlaridan biri – bu PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study)

dasturidir. Ushbu dastur orqali o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, matnni tushunish va tahlil qilish qobiliyati aniqlanadi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ularni takomillashtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu dasturning ko‘p yillar davomida muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotganiga 2021-yilda 20 yil to‘ladi. Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun; Boshqacha qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma’lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilash uchun ta’lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma’lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

Samariddin Qorayev va Sarvinoz Allayorovalarning fikriga ko‘ra, PIRLS, yosh o‘quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta’lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya’ni badiiy tajriba orttirish, ma’lumot olish va undan foydalanish ko‘nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi. Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o‘zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Bunga misol sifatida, 2021-yilda o‘tkazilgan tadqiqotda o‘quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etganini aytish o‘rinlidir. Raqamli formatga o‘tish bilan birga, internet muhitida boshqariladigan ePIRLS onlayn o‘qishni kompyuterda baholash kabi o‘zgarishlar ham ko‘zda tutilgan.[3-445]

2021-yilda PIRLS xalqaro baholash dasturi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotda dunyoning 60 ga yaqin davlati qatnashdi. PIRLS tadqiqoti butun dunyo bo‘ylab 4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi bo‘yicha qiyosiy tahlil o‘tkazadi. PIRLS-2021 tadqiqotiga mamlakatimizdan 180 ta maktabdan 6000ga yaqin o‘quvchilar va ularning ota-onalari, maktab direktorlari va sinf rahbarlari qatnashishdi. Tadqiqot doirasida 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish, tushunish, xulosalar chiqarish, matnlardagi g‘oyalar va fikrlarni o‘zaro bog‘lash darajalarini aniqlashga qaratilgan topshiriqlarni bajarish bilan birgalikda o‘quv jarayonidagi muhitni aniqlashga qaratilgan so‘rovnomalarda qatnashish ham talab etiladi. Shuningdek, ota-onalar ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar, o‘quvchining uyidagi muhit va ta’lim muassasasi bilan munosabatlariga oid so‘rovnomada qatnashdilar. Tadqiqotda qatnashuvchi maktablar va o‘quvchilar ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda tasodifiylik tamoyiliga asoslanib tanlab olingan. Ushbu tanlovda ta’lim tili, o‘quvchilarning soniga ko‘ra katta-kichiklik mezonlari ham inobatga olingan.PIRLS-2021 xalqaro tadqiqotida o‘zbekistonlik o‘quvchilar 437 ball to‘plashdi.

PIRLS o‘qish savodxonligini baholovchi dastur. O‘qish savodxonligi esa, tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan va/yoki jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyatidir. O‘quvchi turli shakldagi matnlardan mazmun hosil qiladi. Ular o‘rganish, maktab va kundalik hayotda o‘zlari kabi boshqa o‘quvchilar jamoasiga qo‘shilish va vaqtini samarali o‘tkazish uchun o‘qiydilar[1]

PIRLS o‘quvchilar o‘qish savodxonligining uch jihatiga qaratilgan:

— O‘qish maqsadlari;

—Tushunish jarayonlari;

—O‘qish va munosabat.

Tushunish jarayonining to‘rt turi PIRLSda baholanadi:

1) Aniq bayon qilingan ma’lumotlarga e’tibor qaratish;

2) To‘g‘ri xulosalar qilish;

3) G‘oyalar va ma’lumotlarni sharhlash va birlashtirish;

4) Tarkib, til va matn elementlarini o‘rganish va baholash.[2-30]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini PIRLS baholashiga tayyorlash ko‘p bosqichli va tizimli yondashuvni talab etadi.

1. O‘qishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish. O‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabati — PIRLS natijalari uchun muhim omillardandir. Buning uchun sinfda o‘quv burchaklari, kichik kutubxonalar tashkil etilishi, o‘qish mashg‘ulotlari esa qiziqarli va interaktiv shaklda o‘tkazilishi kerak.

2. O‘qish strategiyalarini o‘rgatish. Matndan asosiy g‘oya va tafsilotlarni ajratish, tushunmagan so‘zlarni aniqlash, matnga nisbatan munosabat bildirish kabi ko‘nikmalar o‘quvchilarda bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Bu orqali ular nafaqat o‘qishni, balki fikrlab o‘qishni o‘rganadilar.

3. PIRLS formatidagi topshiriqlar bilan ishlash. O‘quvchilarni PIRLS formatidagi test topshiriqlari bilan tanishtirish, savol tuzilishini tushuntirish va javob variantlarini to‘g‘ri tahlil qilishni o‘rgatish zarur. Variantli, erkin javobli hamda matn asosida taxmin qilish talab qilinadigan savollar bilan mashq qilish foydali bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorlash – bu nafaqat ularning matnni tushunish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish, va zamonaviy o‘qitish metodlariga asoslangan ta’lim muhitini yaratishni ham nazarda tutadi. Mazkur tayyorgarlik jarayonida o‘qituvchilarning malakasini oshirish, metodik qo‘llanmalarni takomillashtirish hamda oilaviy va ijtimoiy muhit bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘quvchilarga ko‘proq mustaqil fikrlash, savol berish va javob topishga yo‘naltirilgan topshiriqlar berish ularning xalqaro baholash mezonlariga tayyorligini oshiradi.

**Foydalanilgan ADABIYOTLAR ro‘yxati:**

1Ina V.S. Mullis va Michael O. Martin. PIRLS-2021 baholash qamrov doirasi. Toshkent- 2021.

2.Kintsch, W. (2012). Psychological models of reading comprehension and their implications for assessment. In J.P. Sabatini, E.R. Albro, & T. O‘Reilly (Eds.), Measuring up: Advances in how to assess reading ability (pp. 21–37).

3. Samariddin Qorayev, Sarvinoz Allayorova " Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pirls xalqaro baholash dasturiga tayyorlash ". Maqola// Academic Research in educational science 2021.[ 443-448]